

“Venn diagrammasi” metodi

Venn diagrammasi ikki va uch jihatlarini hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi. O'quvchilarda tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Undan foydalanish bosqichlari:

- ✓ o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi;
- ✓ plakatga chizilgan diagramma doskaga osib qo'yiladi;
- ✓ har bir to'g'ri fikrga qo'yiladigan ball oldindan kelishib olinadi;
- ✓ qo'yilgan topshiriq bo'yicha guruhlarining har qanday to'g'ri yoki noto'g'ri fikrlari bir o'quvchi tomonidan ikki xil rangdagi flomasterda diagrammaning tegishli joylariga yozib boriladi;
- ✓ kichik guruh ichidan biror o'quvchi sheriklarining ismi-shariflari to'g'risiga ular aytgan fikrlarni qayd qilib boradi;
- ✓ fikr bildirishlar nihoyasiga yetgach, o'qituvchi va o'quvchilar hamkorligida to'g'ri va noto'g'ri javoblar aniqlanadi;
- ✓ to'g'ri javobga uch ball qo'yiladigan bo'lsa, har bir noto'g'ri fikr uchun guruhning umumiy balidan uch ball olib tashlanadi;
- ✓ eng ko'p ball to'plagan guruh g'olib hisoblanib ular rag'batlantiriladi;
- ✓ bu jarayonda kichik guruhda qayd etilgan javoblarning noto'g'rilari o'chirib chiqiladi va natijalar e'tiborga olingan holda o'quvchilarga tabaqalashtirilgan ball qo'yiladi.

Venn diagrammasi metodini barcha sinflarda bir-biriga bog'liq mavzularni tahlil qilish, solishtirish, taqqoslash va mustahkamlashda foydalanish yaxshi samara beradi. Quyida ushbu metodni biologiya darslarida qo'llash mumkin bo'lgan namunalar keltirilgan:


Prokariotlar bilan Eukariotlarni umumiy va farqli tomonlarini aniqlashga doir quyidagi diagrammani misol tariqasida keltirish mumkin.

9-sinf biologiya darsida Prokariot va Eukariot hujayra mavzularini o'tib bo'lgach, mavzularni umumlashtirish maqsadida “Venn diagrammasi” qo'llanilsa dars samaradorligi oshadi.

O'qituvchi tarqatmasi

1.Prokariot organizm

2.Eukariot organizm



Venn diagrammasi quyidagi ko'rinishda ham bo'ladi.

Bu diagrammada 1-Yo'sinlar bo'limini Qirqbo'g'img'lar bo'limi bilan, 2-Qirqbo'g'img'lar bo'limini Qirqquloqlar bo'limi bilan, 3-Qirqquloqlar bo'limini Yo'sinlar bo'limi bilan faqat o'ziga xos xususiyatlar va o'xshash tomonlarini taqqoslab, solishtiradilar. 4 - Doiraning kesishuv joylarida ya'ni o'rtasiga esa ikkita va 5 - uchta bo'limga xos umumiy ma'lumotlar yoziladi. Bu bilan o'quvchilar o'simlik bo'limlarini bir-biridan farqini va o'ziga xos umumiy xususiyatlarini mukammal o'rganadilar.

6 –sinf botanika darslarida “O'simliklar bo'limlarini” mustahkamlashda bu metoddan foydalanish mumkin.

O'qituvchi tarqatmasi

1.Yo'sinlar bo'limi 2.Qirqbo'g'img'lar bo'limi. 3.Qirqquloqlar bo'limi

